

“OFB va Mastercard bilan sayohat sari” marketing aksiyasini o‘tkazish qoidalar

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Mazkur Qoidalar «OFB va Mastercard bilan sayohat sari» marketing aksiyasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi, shartlari hamda muddatlarini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya tashkilotchisi — «Orient Finans» XATB.
- 1.3. Aksiya 2026-yil 23-sentabrdan 2026-yil 23-dekabrgacha bo‘lgan davrda o‘tkaziladi.
- 1.4. Aksiya Mastercard xalqaro to‘lov kartalari emissiyasini oshirish, mijozlarni Bankning raqamli xizmatlaridan faol foydalanishga rag‘batlantirish, transchegaraviy (cross-border) operatsiyalar hajmini ko‘paytirish hamda yangi mijozlarni jalb etish maqsadida o‘tkaziladi.

2. Aksiya ishtirokchilari

- 2.1. Aksiya ishtirokchilari aksiya o‘tkaziladigan davrda «Orient Finans» XATB mobil ilovasi orqali Mastercard kartasini rasmiylashtirgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.
- 2.2. Aksiyada 18 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishi mumkin.
- 2.3. «Orient Finans» XATB xodimlari, ularning yaqin qarindoshlari, shuningdek, aksiyani tashkil etish va o‘tkazishda bevosita ishtirok etgan shaxslar aksiyada qatnashishi mumkin emas.
- 2.4. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining mazkur Qoidalar bilan tanishganini va ularga to‘liq rozilik bildirganini anglatadi.
- 2.5. Ishtirokchi aksiya shartlari yoki mazkur Qoidalar talablarini buzgan taqdirda, Tashkilotchi uni sababini izohlamagan holda aksiyada ishtirok etishdan chetlashtirish huquqiga ega.

3. Ishtirok etish shartlari

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun mijoz aksiya o‘tkaziladigan davrda quyidagi shartlarni bajarishi lozim:
 - «Orient Finans» XATB mobil ilovasi orqali Mastercard kartasini rasmiylashtirishi;
 - rasmiylashtirilgan Mastercard kartasi orqali umumiy summasi kamida 10 AQSh dollarini tashkil etadigan bitta yoki bir nechta transchegaraviy (cross-border) operatsiyalarni amalga oshirishi.
- 3.2. Mazkur Qoidalarda transchegaraviy (cross-border) operatsiya deganda bank plastik kartalar orqali amalga oshiriladigan to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ro‘yxatdan o‘tgan bank, to‘lov tashkiloti yoki boshqa moliya muassasasi ishtirok etadigan operatsiya tushuniladi. Bunday operatsiyalarga xorijiy bank kartalariga pul o‘tkazmalari, xorijiy internet-do‘konlar va xalqaro raqamli servislar uchun to‘lovlar, shuningdek, xalqaro to‘lov tizimlari orqali amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalar kiradi. Bunda mijozning operatsiya amalga oshirilgan paytdagi joylashuvi ahamiyatga ega emas.
- 3.3. Tranzaksiya — kalendar oy davomida tovarlar va xizmatlar, shu jumladan Internet tarmog‘i orqali xarid qilingan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov amalga oshirilishi natijasida Karta egasining hisobvarag‘ida aks ettirilgan chiqim operatsiyasidir. Bankomat yoki bank kassalari orqali kartadan naqd pul yechish, shuningdek, konversiya operatsiyalari tranzaksiya hisoblanmaydi. Aksiyada ishtirok

etuvchi tranzaksiya summasi Bank komissiyasi hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

3.4. Aksiya shartlarini bajargan har bir ishtirokchi tegishli bosqich yakunlari bo'yicha oraliq sovrinlar g'oliblarini aniqlash jarayonida, shuningdek, aksiya yakunlari bo'yicha bosh sovrin g'olibini aniqlash jarayonida ishtirok etadi.

3.5. Bir ishtirokchi aksiya davomida oraliq pul mukofotini faqat bir marta yutishi mumkin. Bunda oraliq sovrin g'oliblari bosh sovrin g'olibini aniqlash jarayonida ishtirok etish huquqini saqlab qoladi.

4. Yutuq o'tkazish tartibi

4.1. G'oliblarni aniqlash jarayoni «Orient Finans» XATB Komissiyasi a'zolari ishtirokida o'tkaziladi.

4.2. Har bir oy yakunlari bo'yicha aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilar orasidan 20 nafar g'olib aniqlanadi. Har bir g'olibga 200 AQSh dollariga teng miqdordagi pul mukofoti beriladi. Pul mukofoti mukofot hisoblangan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy valyuta kursi bo'yicha milliy valyutada hisoblab chiqiladi va g'olibning Bankdagi hisobvarag'iga o'tkaziladi.

4.3. Bosh sovrin uchun o'tkaziladigan qur'ada 2026-yil 23-sentabrdan 23-dekabrgacha bo'lgan davrda aksiya shartlarini bajargan barcha ishtirokchilar qatnashadi. Aksiya yakunlari bo'yicha bir nafar g'olib aniqlanadi va unga ikki kishiga mo'ljallangan Malayziyaga sayohat yo'llanmasi topshiriladi.

4.4. Oraliq sovrinlar bo'yicha g'oliblarni aniqlash quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1-bosqich — 23.09.2026–23.10.2026→ Qur'a 29.10.2026-yilgacha o'tkaziladi;

2-bosqich — 24.10.2026–23.11.2026→ Qur'a 29.11.2026-yilgacha o'tkaziladi;

3-bosqich — 24.11.2026–23.12.2026→ Qur'a 29.12.2026-yilgacha o'tkaziladi;

Har bir bosqich yakunlari bo'yicha 20 nafardan g'olib aniqlanadi. Bosh sovrin g'olibini aniqlash aksiyaning umumiy muddati yakunlanganidan so'ng Bank tomonidan belgilangan sanada o'tkaziladi.

4.5. G'oliblar Random.org internet-resursi yoki shunga o'xshash tasodifiy tanlash dasturi yordamida aniqlanadi.

4.6. «Orient Finans» XATB, nizoli holatlar bundan mustasno, aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar olib bormaslik hamda boshqa yozishmalarni amalga oshirmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.7. «Orient Finans» XATB mazkur Qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, sovrinlar fondining tarkibi va sonini o'zgartirish huquqiga ega. Bunday o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi axborot ular kuchga kirishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

4.8. «Orient Finans» XATB sovrinlardan foydalanish jarayonida g'olibning hayoti yoki sog'lig'iga, shuningdek, uchinchi shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgar hisoblanmaydi.

Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining mazkur Qoidalar bilan tanishganini va ularga to'liq rozilik bildirganini, shuningdek, uning ism-sharifi, fotosuratlari va boshqa ma'lumotlaridan reklama hamda axborot maqsadlarida qo'shimcha haq to'lanmagan holda foydalanishga roziligini anglatadi.

4.9. Aksiyani tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar «Orient Finans» XATB va ishtirokchi o'rtasida muzokaralar hamda o'zaro kelishuv yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

4.10. «Orient Finans» XATB Random.org internet-resursi yoki shunga o'xshash tasodifiy tanlash dasturi yordamida har bir bosqich yakunlari bo'yicha 20 nafar pul mukofoti g'olibini, aksiya yakunlari bo'yicha esa bosh sovrin g'olibini aniqlaydi. Bosh sovrin uchun qo'shimcha ravishda ikki nafar zaxira nomzod ham aniqlanadi.

4.11. Agar bosh sovrin g'olibi sovrinni olishdan bosh tortsa yoki uni belgilangan muddatda olmasa, sovrin birinchi zaxira nomzodga beriladi. Birinchi zaxira nomzod ham sovrinni olishdan bosh tortsa yoki uni belgilangan muddatda olmasa, sovrin ikkinchi zaxira nomzodga beriladi.

4.12. Agar bosh sovrin g'olibi va ikki nafar zaxira nomzod sovrinni olishdan bosh tortsa yoki uni belgilangan muddatda olmasa, Komissiya qaroriga muvofiq yangi g'olib aniqlanadi.

4.13. Zarurat yuzaga kelgan taqdirda, Tashkilotchi bosh sovrin topshirilgunga qadar qo'shimcha qur'a o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.14. Aksiya natijalari bo'yicha Komissiya bayonnomasi tuziladi va Komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

4.15. G'oliblarning ism-shariflari «Orient Finans» XATBning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi hamda Bankning rasmiy ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida joylashtirilishi mumkin.

4.16. G'oliblar Bank tomonidan SMS-xabarnoma yuborish yoki Bankda ro'yxatdan o'tkazilgan telefon raqami orqali bog'lanish yo'li bilan xabardor qilinadi.

4.17. Ishtirokchining aksiya shartlari va mazkur Qoidalar talablariga rioya qilmaganligi oqibatida yuzaga kelgan holatlar uchun Tashkilotchi javobgar hisoblanmaydi.

5. Sovrinlar fondi

5.1. Sovrinlar fondi «Orient Finans» XATBning o'z mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

5.2. Aksiya doirasida quyidagi sovrinlar nazarda tutiladi:

— bosh sovrin — ikki kishiga mo'ljallangan Malayziyaga sayohat yo'llanmasi;

— oraliq sovrinlar — har oy 20 nafar g'olibning har biriga 200 AQSh dollariga teng miqdordagi pul mukofoti.

Pul mukofoti g'olibga mukofot hisoblangan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy valyuta kursi bo'yicha milliy valyutada hisoblab chiqiladi va uning hisobvarag'iga o'tkaziladi.

5.3. Sovrinlarning soni va yakuniy tarkibi Tashkilotchi tomonidan belgilanadi.

5.4. Pul mukofotlari bundan mustasno, boshqa sovrinlarning pul ekvivalenti ishtirokchilarga to'lab berilmaydi.

6. Aksiyani o'tkazish

6.1. «Orient Finans» XATB, nizoli holatlar bundan mustasno, ishtirokchilar bilan yozma muzokaralar olib bormaslik hamda boshqa yozishmalarni amalga oshirmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.2. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining ism-sharifi, fotosuratlari va boshqa materiallaridan reklama hamda axborot maqsadlarida, qo'shimcha haq yoki mukofot to'lanmagan holda, foydalanishga rozilik bildirganini anglatadi.

6.3. «Orient Finans» XATB mazkur Qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega. Bunday o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi axborot ular kuchga kirishidan kamida bir ish kuni oldin Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

6.4. «Orient Finans» XATB mazkur Qoidalar va aksiya shartlariga zid bo'lmagan holda sovrinlar fondiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.

6.5. Aksiyani tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Tomonlar o'rtasida kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

7. Sovrinlarni olish tartibi

- 7.1. Pul mukofotlari g'olibning Bankda ochilgan hisobvarag'iga o'tkaziladi.
- 7.2. Bosh sovrin «Orient Finans» XATB tomonidan belgilangan joyda va sanada g'olibga topshiriladi.
- 7.3. Sovrinni olish uchun g'olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini taqdim etishi shart.
- 7.4. Sovrinni topshirish qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.
- 7.5. Sovringa bo'lgan mulk huquqi sovrin g'olibga topshirilgan paytdan boshlab unga o'tadi.
- 7.6. Sovrinni olishning oxirgi muddati — 2027-yil 29-yanvar.

8. Ishtirokchilarni xabardor qilish

- 8.1. Aksiya ishtirokchilarini xabardor qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:
 - reklama materiallarini joylashtirish;
 - bank ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilish;
 - bank rasmiy saytida joylashtirish.
- 8.2. Batafsil ma'lumot www.ofb.uz saytida joylashtiriladi.
- 8.3. Qo'shimcha ma'lumotni bankning ishonch telefoni orqali olish mumkin: (+998 71) 200-88-99, 4004.

9. Yakuniy qoidalar

- 9.1. «Orient Finans» XATB ushbu Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 9.2. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining ism-sharifi, fotosuratlari va boshqa ma'lumotlaridan reklama hamda axborot maqsadlarida qo'shimcha haq to'lanmagan holda foydalanishga rozilik bildirganini anglatadi.
- 9.3. Aksiyani tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hal etiladi.